

ZARAFSHON TOG' TIZMASINING JANUBIY YON BAG'RIDA TARQALGAN QURUQLIK MOLLYUSKALARNING ZOOGEOGRAFIK TAVSIFI

Orziyeva Y.M.
Guliston davlat universiteti

Annotation. The terrestrial molluscs distributed on the southern flank of the Zarafshan mountain range have been found to contain 35 species belonging to 13 families and are part of the following zoogeographic groups: Palearctic and Holarctic, European, mountainous Asian, Mediterranean, pre Asian and Mediterranean species.

O'rta Osiyo faunasini zoogeografik tahliliga oid ilk ma'lumotlar V. F. Oshanin (1891); M. A. Menzbir (1914); A. P. Semyonov-Tyan-Shanskiy (1936); B. K. Sapozhnikov (1963) ishlarida qayd etilgan bo'lsa, O'zbekiston quruqlik mollyuskalari zoogeografiyasiga oid malumotlar I.M.Lixarev, A.Y. Rammelmeyr (1952), K.K.Uvaliyeva(1990), A.Pazilov(1992), A.Pazilov, J.Azimov(2003) ishlarida berilgan.

Oxirgi 20-25 yilda olib borilgan faunistik tadqiqotlar natijasida ko'plab yangi turdagi mollyuskalarning kashf etilishi va yashash joylarini o'rganish ba'zi zoogeografik qarashlarni qayta ko'rib chiqishga sabab bo'ladi.

Quruqlik mollyuskalarining zoogeografik tuzilishi areal prinsplariga muvofiq ifodalanadi.

Material terishda, asosan, A.A.Shileyko va A.Pazilov (2013) metodlaridan foydalanildi.


2022-2024- yillarda Zarafshon tog' tizmasi janubiy yon bag'rida tarqalgan mollyuskalardan to'plangan materiallardan foydalanildi. Turli balandlik mintaqalari bo'yicha tarqalgan quruqlik mollyuskalari sistematik va zoogeografik tahlil qilindi. Materiallarni o'rganishimiz natijasida Zarafshon tog' tizmasi janubiy yon bag'rida tarqalgan quruqlik mollyuskalarining 13 oilaga mansub 35 tur borligi aniqlangan.

Palearktika va Golarktika turlari. Ushbu mollyuskalar guruhi sovuqqa chidamliligi va yuqori namlikni yaxshi ko'rishi bilan ajralib turadi, yuqori namlik bilan turli xil biotoplarda yashaydi.

Tadqiqot hududda o'simlik qoldiqlaridan nam chirindi biotoplarida *Cochlicopa nitens*, *C. lubrica*, *Vallonia costata*, *Pupilla muscorum*, *Zonitoides nitidus*, *Oxyloma elegans*, *Vertigo antivertigo* turlari, ba'zi turlari *Deroceras leave*, *D.agreste* faqat tog' oldi biotoplarida, tog'li hududga kirmasdan qayd etiladi.

Yevropa turlari. Ekologik jihatdan kserofillar-*Sphyradium doliolum*, *Pupilla triplicate*, *Phenacolimax annularis*, *Deroceras reticulatum*. Dengiz sathidan 1500 metr balandlikda uchraydi. Ular yarim butalar orasida, va toshlar ostida yashaydi. Ba'zilar ochiq, o'rtacha namlikka ega bo'lgan biotoplarda yashaydilar.

Tog'li Osiyo turlari. Tadqiqot hududida asosan tog'li hududlarda butalar orasida, toshlar ostida va taluslarda yashaydilar. O'rganilgan hududda quyidagi turlar mavjud: *Leucozonella rufispira*, *P. turkmanica*.



Rasm. Tadqiqot hududida tarqalgan quruqlik mollyuskalarning zoogeografik tarkibi.

O'rta Osiyo turlari. O'rta Osiyo turlarining hududlari juda xilma-xildir. *Gibbulinopsis gracilis*, *Gibbulinopsis nanosignata*, *Pseudonapeus kasnakowi*, *Ps. zerafschanicus*, *Turanena conicula*, *Chondrulopsina fedtschenkoi*, *Leucozonella ratteri*, *L. angulate*, *L. caria*, *Candaharia retullum*, *C. (Levanderia) levanderi*, *C. (Levanderia) izzatullaevi*, *C. langarica*, *C. (Levanderia) roseni*, *Macrochlamys turanica*, *M.sogdiana*. Ular orasida muayyan tog' tizmalari bilan chegaralangan tor diapazonli endemiklar.

Old Osiyo turlari. *Gibbulinopsis signata*, *Xeropicta candacharica*, *Lutopelte maculata* asosan, o'rmon zonalarida nam biotoplarda yashaydi.

O'rta yer dengizi turlari. *Monacha carthusiana* ko'pincha daryolar, suv havzalari bo'yida, nam o'tloqlarda yashaydigan gigrofil mollyuskalar dengiz sathidan, 1500-2500 m balandlikda uchraydi.

Olingan tadqiqot natijalarga ko'ra, turlar soniga nisbatan O'rta Osiyo turlari ko'pchilikni tashkil qilib, 16 ta tur kirib, foizga nisbatan 46% ga teng. Palearktik va Goloarktik turlari 9 ta (26%), Yevropa turlari 4ta (11%), Tog'li Osiyo turlari 2 ta (5%), Old Osiyo turlari 3ta (9%), O'rta er dengizi turlari 1 ta (3 %).

Xulosa o'rnida shuni qayd qilish mumkinki, Zarafshon tog' tizmasining janubiy yon bag'rida tarqalgan quruqlik mollyuskalarining zoogeografik tarkibi geterogen xususiyatiga ega bo'lib, bu esa hududning tarixiy shakllanishiga bog'liq.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

- 1.В.Ф. Ошанин. Записки ИРГО по общей географии. Т. XXIII, № 1 : Зоогеографический характер фауны полужесткокрылых Туркестана /СПб, 1891
- 2.Мензбир М.А. 1914. Зоологические участки Туркестанского края и вероятное происхождение фауны последнего. М. 144 с.
- 3.Пазилов А.П., Азимов Д.А. Наземные моллюски (Gastropoda, Pulmonata) Узбекистана и сопредельных территорий. – Ташкент: Фан, 2003. – 316 с.
- 4.Сапожников Д.Г. Караджальское железо-марганцевое месторождение (в Центральном Казахстане). М.:Изд-во АН СССР,1963 с.-196 с. (Труды Ин-та геологии рудных месторождений, петрографии, минералогии и геохимии; Вып.89).
- 5.Семёнов-Тян-Шанский А.П. Пределы и зоогеографические подразделения Палеарктической области для наземных сухопутных животных на основании географического распределения жесткокрылых насекомых. Тр. Зоол. ин-та АН СССР. 1935. Т. 2, вып. 2-3. С. 397-410. Эта же работа опубл. отдельно: М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1936. - 16 с.
- 6.Увалиева К.К. Наземные моллюски Казахстана и сопредельных территорий / К. К. Увалиева. – Алма-Ата: Наука, 1990. – 224 с.
- 7.Шилейко А.А. Наземные моллюски подотряда Pupillina фауны СССР (Gastropoda, Pulmonata, Geopila) // Фауна СССР. Моллюски. – Л., 1984. – Т. 3. – Вып. 3. – № 130. – 399 с
- 8.Шилейко А.А. Наземные моллюски надсемейства Helicoidea // Фауна СССР. Моллюски. – Л., 1978. – Т. 3. – Вып. 6. – № 117. – 384 с.
9. Orziyeva, Y., & Davronov, B. (2024). MOLLUSCAN FAUNA AND ECOLOGY OF MOUNTAIN KARATEPA. INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT, 3(9), 73-77. 8. Orziyeva, Y. (2022). Water Molluscs Found in Some Water Basins of Kashkadarya Region. Miasto Przyszłości, 27, 145-148.
- 10.Orziyeva, Y. (2022). SUV MOLLYUSKALARINING PARAZITLARNING ORALIQ XO'JAYIN SIFATIDAGI ROLI. Евразийский журнал академических исследований, 2(6), 26-30.
11. Orziyevich, D. B. (2022). MOLLUSCS ARE INTERMEDIATE HOSTS OF HELMINTHS IN THE SOUTH OF UZBEKISTAN. Academia Globe: Inderscience Research, 3(04), 249-252.
12. Xosilova, G., & Ismoilova, G. (2021). MOLLYUSKALARINING TABIAT MUVOZANATIDAGI IJOBIY VA SALBIY AHAMIYATI. Scientific progress, 2(5), 397-400.
13. kizi Norkobilova, Z. B., Rakhmatullayev, A. Y., & ogli Boyjigitov, O. D. (2023). PRELIMINARY INFORMATION ABOUT DRAGONFLIES FAUNA DISTRIBUTED IN KASHKADARYA REGION. World of Scientific news in Science, 1(3), 5-14.
14. Bobonazarov, G.Y., Omonova, NR va Rabimova, ZS (2022). QO'YLARNING NOZOFARNETIK BO'YICHALARINI O'rganish Oestrus ovis L.(DIPTERA: OESTRIDAE). ZAMONAVIY DUNYODA FAN VA INNOVATSIYANING ROLI , 1 (1), 95-101.